

...Farzandlarimizni o'z fikriga, o'z qarashlariga ega, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, ertangi kunimizning mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi davr talab qiladigan sog'lom va barkamol avlod etib tarbiyalash masalasiga o'z vaqtida ustuvor ahamiyat berib, uni umummilliy darajaga ko'targanimiz – eng to'g'ri, uzoqni ko'zlagan, hayotimizda o'zini to'la oqlagan tarixiy qadam bo'ldi.

Islom KARIMOV

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:36 (66993)

2014-yil

8-sentabr

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092


## JAJJI NICOHLARDA BUYUK KELAJAK

Mamlakatimizdagi barcha ta'lim maskanlarida 2-sentabr kuni birinchi qo'ng'iroq sadolari «Mustaqillik darslari» bo'lib o'tdi.

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 125-umumta'lim maktabida «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida tashkil etilgan «Mustaqillik darslari»da Istiqlolimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, qadriga yetish, yosh avlod kamoloti va istiqboli yo'lida yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanish o'g'il-qizlarga aniq va ta'sirchan misollar yordamida aytib o'tildi.

Navro'z NORBOBOYEV

AKSI



To'shkent shahri, Sergeli tumanidagi 104-umumta'lim maktabining 1-sinfiga bu yil 192 nafar o'quvchi qabul qilindi.

N. SULTONOV o'lgan suratlar

### YURTNI ULUG'LASH BAXTI



2-bet



### YURAGIMDA YANGRAGAN JAVOB

3-bet



### JAVLODLAR UCHRASHUVI

4-bet

# YURTNI ULUG'LASH BAXTI

Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida «Mustaqillik darslari» bo'lib o'tdi. O'tgan 23 yil davomida erishilgan ulkan yutuqlar, xalqimizning ko'p asrlik orzusi bo'lgan Istiqlol hamda Prezidentimizning shu yil 15 - 16-may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati» mavzusidagi Xalqaro konferensiyadagi ma'ruzasi mazmun-mohiyati haqida so'z yuritildi.

Eng ulug' ne'mat bo'lgan Mustaqillik erkin va ozod hayot, mardlik va matonat timsoliga aylandi. Istiqlol bizga milliy qadriyatlarimizni, insoniy sha'nimizni tiklab, o'zligimizni anglash tuyg'usini berdi. Tarixan qisqa davrda o'g'il-qizlarimiz ilm-u fanda, san'at va adabiyotda, sport sohasida o'z iqtidorini namoyish etib, olamshumul yutuqlarga, mislsiz g'alabalarga erishdilar. Shunday farahbaxsh damlarda beixtiyor «Biz kecha kim edig-u kim bo'ldik?» degan fikr-mulohazalar xayolimizdan o'tishi tabiiy. Bunday ezgu ishlar, albatta, Istiqlol sharofatidir.

Davlatimiz tomonidan farzandlarimizni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan, har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar ularni yuksak marralar sari chorlab boraveradi.

Quyida o'quv muassasalarida o'tkazilgan «Mustaqillik darslari»dan o'qituvchi va o'quvchilarning olgan taassurotlari bilan qiziqdik.

## YUKSAK MARRALAR SARI

Inoyatxon NORMAHAMATOVA, Namangan viloyati, Chust tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi:

– Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, tarixan qisqa davrda, avvalo, xalqimizning xohish-irodasi, kuch-qudrati, mashaqqatli va bunyodkorona mehnati evaziga yangi, o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, taraqqiyot yo'lidan dadil odimlab borayotgan mustaqil, suveren O'zbekiston davlati paydo bo'ldi. Shuningdek, «Mustaqillik darsi»da milliy g'urur va iftixorini tiklagan, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallagan buyuk xalq ekanligimiz yana bir bor ta'kidlandi. O'z navbatida, o'quvchilar ham shu muqaddas diyorni

ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, unga munosib farzand bo'lish haqida to'lqinlanib gapirdilar. Shuni unutmasligimiz kerakki, Vatanimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi va farovon kelajagimiz o'zimizning qo'limizda.

Maktabimizga tashrif buyurgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev, adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov bilan o'quvchilarimiz o'rtasida adabiy uchrashuv o'tkazildi. Vatani, ma'naviyat, adabiyot haqidagi qizg'in savol-javoblarda o'quvchilarimiz o'zlarining yuksak ma'naviyati, kuchli bilim egasi ekanliklarini ko'rsata olishdi. Mehmonlarning o'quvchilarimiz haqidagi iliq fikrlari bizni ham behad quvontirdi. Ana shunday zakovatli, imon-e'tiqodli, yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun yonib yashaydigan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berayotganimdan faxrlanaman.

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:



ZUBAYDA olgan surat

## SOHIBQIRON RUHI YOR BO'LGAY

Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

– Yurtimizning serquyosh Surxon vohasi Istiqlol yillarida hadsiz gullab yashnadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni vohaning yuragi bo'lmish Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi: Gulmira ISMOILOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi:

## QUCHOG'INGDA SHOD-U XURRAMMIZ

Dilshoda AVVALBOYEVA, O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti II bosqich talabasi:

– «Mustaqillik darsi»da ustozlarim hamda tengdoshlarim tomonidan bildirilgan ozodlik haqidagi fikrlarni tinglar ekanman, beixtiyor xayolimdagi bir o'y kechdi. Xalqimizning shonli o'tmishiga nazar tashlarkanman, undagi eng yorqin davr asrlar davomida orziqib kutilgan, qanchadan-qancha insonlar erisha olmagan mustaqillikka sazovor bo'lgan kunimiz ekanligining guvohi bo'ldim. Bunday baxtdan quvonish bilan birgalikda shu kunlarga yetib kelishning qanchalar mashaqqatli bo'lganligini zinhor unutmasligimiz zarur. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ozodlik, shunday buyuk ne'matki, uni birov hadya qilolmaydi. Mustaqillikka faqat kurashib erishiladi. Bunday kurashlarning birida Vatani uchun jonini bergan ulug' bobokalonlarimizdan biri Najmiddin Kubroni yodga olsak. U mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda yurt bayrog'ini qo'lga olib, mardlarcha Vatanimizni himoya qilgani, hatto shahid bo'lganidan so'ng ham bosqinchilar uning qo'llaridan yurt bayrog'ini ajratib olisholmagan har birimizni to'lqinlantirib yuborishi tabiiy, shunday emasmi?!

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, bu dunyoga kelgan inson zoti borki, ozodlik sari intilib yashaydi. Bunga Shiroq, To'maris, Spitamen kabi ajdodlarimizdan Avloniy, Qodiriy, Behbudiy singari jadiralarimizgacha bo'lgan erk yo'lida kurashganlarning ko'rsatgan jasoratlari namunasi ham shohid bo'lishimiz mumkin.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yurtimizda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib kelinmoqda: ilm-fan, madaniyat va san'at rivoj topib boryapti. Bularning bari, hech shubhasiz, Istiqlol sharofatidir. Yurtimiz farzandlari o'zlarini har jahbada namoyon etib kelishmoqda. Mustaqillik yillarida milliy urf-odat, qadriyatlarimiz, aziz ajdodlarimizning ulug' nomlari qayta tiklandi. Vatanimiz kundan-kun yashnab, uning quchog'ida shod-xurramlikda unib o'smoqdamiz.

Albatta, bunga javoban, biz yoshlardan tinmay izlanish, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish, bir so'z bilan aytganda, yurtimizning yanada gullab-yashnashida o'z hissamizni qo'shmog'imiz talab etiladi. Zero, yurtni ulug'lash – oliy baxt. Tilagim, bu baxt barchamizga nasib etsin. Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

## SADOQATIM SENG BAXSHIDA

Yunusobod tumanidagi 302-umumta'lim maktabida davlatimiz Mustaqilligining 23 yilligiga bag'ishlangan, tantanali kecha o'tkazildi. Dastlab, maktab rahbari Feruza Tursumetova yig'ilganlarni Mustaqillik bayrami bilan muborakkob etdi.



M. AZIMOV olgan surat

Boshlovchi Bahodir Valiyev yig'ilganlarni tadbir mehmonlari bilan tanishtirib, so'zni shoira Zulfiya Mo'minova bergi. Mehmon barchani Istiqlol ayyomi bilan qutlab, tabrik o'rinda ustozlarga bag'ishlangan she'rini o'qib berdi. Shoira so'z yakunida muallimlar haqidagi rivoyatni keltirib o'tar ekan, ustozlik qanchalar sharafli va mas'uliyatli kasb ekanligini alohida ta'kidladi.

302-umumta'lim maktabi o'quvchilari Aziza Abdullayeva, Malika Shoazizova hamda 259-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi Go'zal Bekbo'latova ijrosidagi raqslar tadbiriga yanada fayz kiritdi.

Shuningdek, tadbir mehmonlaridan Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimi Komiljon Abdunabiyev ijrosidagi «Xaloskorlar» qo'shig'i kechangan vatanparvarlik ruhida kechishini ta'minladi. 259-, 265-, 302-umumta'lim hamda 91-, 235-maktabgacha ta'lim muassasalari hamkorligida uyushtirilgan tadbir taassurotlarga boy bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV

O'shanda 4-sinfda o'qirdim. O'qituvchimiz meni savolga tutdi:  
 - Jamshid, ayt-chi, Vatan degani nima?  
 - Vatan... Vatan - bu men tug'ilgan joy va...  
 - Xo'sh, yana-chi?

Men bir zum o'ylanib qoldim.  
 - O'tir, Jamshid, - dedi ustozim jim turganimni ko'rib.

- Menga ikki qo'ymang! Iltimos, qo'ymang... Men buni bilaman, faqat tushuntirib bera olmayapman, - deya yig'lab yubordim.

Yig'laganimning boisi, o'shanda men sinfdagi a'lochi o'quvchilardan biri edim.

Esimda, o'shanda mehdariyo o'qituvchimiz meni arang ovutgan edi. Shundan so'ng u bizga Muhammad Yusufning «Ulug'imsan, Vatanim» she'rini o'qib bergan va shu she'rni yodlab kelishimni aytgandi.

Shundan so'ng oradan ko'p yillar o'tdi. Men maktabni tamomladim. Avval akademik litseyda, so'ng universitetda tahsil oldim. Harbiy xizmatni o'tab

xaritasida O'zbekiston degan nom, chegaralari belgilangan mustaqil davlat bor. Ehtimol, u ayrim mamlakatlar singari hududi jihatdan juda katta emasdir.

Ammo uning o'z bayrog'i, gerbi, madhiyasi va jahon hamjamiyati tan olgan suvereniteti bor.

Mana, 23 yildirki, ona Vatanimiz taraqqiyot sari dadil odimlamoqda. Salkam chorak asr davomida misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritdik.

Xo'sh, Vatan nima? Ehtimol, u Shiroqning jasorati, Jaloliddin

M a n g u -  
berdining  
tug'idir  
y o k i  
A m i r

Temurning qudrati, Alisher Navoiyning she'riyatidir...

Yuksaklikda parvoz etayotgan samolyotdan yurtimni kuzataman. Ulug'vor tog'lar, bepoyon kengliklar, azim daryolar... Yuraging hapriqib ketadi. Qo'y boqib yurgan cho'pon, ketmon ko'targan dehqon, bog' oralagan bog'bon, buloqdan suv ichayotgan bolakay, tandirdan non uzayotgan ona... shovullagan daraxtlar, sayroqi qushlar, yolg'izoyoq

tosh yo'lak - bularning bari - Vatan!  
 ...Bugun bayram shukuhi jo'sh urgan yurtim ko'chalari bo'ylab sayr qilarkanman, yana Vatan haqida xayol suraman.

*Tug'ilib o'sgan oilam, men borgan bog'cha, o'qigan maktabim, birinchi o'qituvchim, men tahsil olgan akademik litsey, universitet, qadrlil ishxonam hamma-hammasi Vatandir!*

Jamshid KAMOL

# YURAGIMDA YANGRAGAN JAVOB

## ELGA MUNOSIB FARZAND

*Kuni kecha Vatanimiz Mustaqilligining 23 yilligini katta shodiyona bilan qarshi oldik. Bilimlar kuni jonajon maktabimizda ham ustozimiz Istiqlol haqida to'lib-toshib gapirdi. Shu kuni o'zimga savol berdim: «Nima qilsam, Vatanimiz rivojiga o'z hissamni qo'shgan bo'laman?»*

Buning uchun, avvalo, bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, namunali xulq bilan a'lo baholarga o'qishimiz kerak. Davlat tilimiz - o'zbek tilini mukammal bilib, ingliz tili va kompyuter texnikasini ham chuqur o'rganishimiz lozim. Kelajakda biror kasb egasi bo'lib, yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shamiz.

Abdumutal BEKPO'LATOV,  
Samarqand viloyati,  
Kattaqo'rg'on tumanidagi  
68-umumta'lim maktabining  
4-sinf o'quvchisi



# MAKTAB haqida birinchi taassurot

## MAKTAB BOG'CHADAN FARQ QILARKAN...

Abdulbosit BAXTIYOROV:

- Har kuni bog'chaga borayotib, ko'chamizdan o'tib ketayotgan o'quvchilarga havas qilib, oyijonimdan, «Men qachon maktabga boraman?», deb so'rardim. Mana, bu yil o'quvchi bo'ldim. Ustozimiz bizga maktabning ichki intizomi haqida gapirib berdilar. Maktab bog'chadan farq qilarkan. Bu yerga kelib, darsga kechikmaslik va odobli o'quvchi bo'lish kerakligini tushundim.

## A'LO BAHO OLAMAN

Mubina YO'LDOSHXO'JAYEVA:

- Maktab boshlanishining birinchi kumidanoq a'lo baholarga o'qishimiz, namunali o'quvchi bo'lishimiz uchun bizga sovg'a berishdi. Menga o'quv qurollari, ayniqsa, sumkamning ko'rinishi juda yoqdi. Alifbedagi rangli suratlariga boy jajji ertaklarni tezroq o'qigim kelyapti. Tumanimizdagi 301-MTMga qatnaganimda, tarbiyachimiz Xadicha opa bizga yozish, rasm chizish va sanashni o'rgatgandilar. Olgan bilimlarimni endi maktabda davom ettiraman.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabida birinchi qo'ng'iroq sadolari ostida maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilari 12 nomdagi «Prezident sovg'asi»ni qabul qilib olishdi. Ularning hayajon to'la nigohlarini suratga muhrlab, maktab haqidagi ilk taassurotlarini so'radik:

## ILK SABOQ

Muslima NIG'MATOVA:  
- Birinchi darsimiz «Mustaqillik darsi» bo'ldi. Unda men yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari haqida gapirib berib, o'qituvchimizdan olqish oldim.

Suhbat chog'ida 1-sinf o'qituvchisi Mastura Saydaliyeva o'quvchilarga «Mustaqillik darsi»ni o'tar ekan, bugun yurtimiz yoshlarining erishayotgan yutuqlari haqida so'zlab, maktabga endigina qadam qo'ygan bu jajji bolajonlar ularning izdoshlari ekanligini ta'kidladi.

Mana, aziz o'quvchilar, jajji uka-singillaringizning ilm maskanidagi dastlabki taassurotlari bilan tanishdingiz. Yangi o'quv yilida sizning maktabingizda qanday o'zgarishlar yuz berdi? Shu haqda, bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

- Men eng odobli o'quvchi bo'laman, - deydi Ibrohim JO'RAYEV.

N. SULTONOV o'lgan suratlari

# MUQADDAS TUYG'U

VATAN TUYG'USI 5



Yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan Mustaqillik bayrami Bilimlar kuni shodiyonasiga ulanib ketdi. Nazarimda, ana shu kunlarda siz yanada baxtiyor bolaga aylanasiz. Ko'ngilga muqaddas tuyg'uni joylab, shijoat bilan yangi o'quv yilini boshlar ekansiz, mustaqillik darslari-yu, Vatan tuyg'usi fani sizni yil bo'yi va umrbod eng oliy maqsad – yurtga muhabbat va sadoqat bilan yashashga undaydi.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'lim maktabida bir necha yildan buyon ana shu fandan saboq berib kelayotgan Mehrinoz opa Usmonova bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

– 5-sinfdan boshlab haftada bir soatdan o'qitiladigan bu dars mavzularini chuqurroq o'rgatish maqsadida o'quvchilarni shahrimizdagi turli muzey va tarixiy maskanlarga olib boraman. Mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni ko'rib faxrlanishlarini, bunday shart-sharoitlarga munosib bo'lishlari kerakligini uqtiraman. O'quvchilarimga ayniqsa, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyidagi mustaqillik davriga oid bo'limdagi eksponatlar juda yoqadi.

Ustozning so'zlarini tinglab turib, o'quvchilik yillarim yodimga tushdi. U vaqtlar dars jadvalida Vatan tuyg'usi fani bo'lmas edi. Bugun esa hammasi butkul o'zgacha. Shunday ekan, yuksak marralar sari dadil odimlayotgan Vatanimizning yorug' kelajagiga munosib hissa qo'shing, aziz o'quvchim!

Sayyora QODIROVA



Birinchi qo'ng'iroq... Uning jarangdor ovozi maktabga ilk bor qadam qo'yayotgan har bir jajji o'g'il-qiz uchun unutilmas onlarni hadya etadi.

## AVLODLAR UCHRASHUVI

Yaqinda Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 11-umumta'lim maktabida 1-sinf o'quvchilari va keksa avlod vakillari ishtirokida uchrashuv o'tkazildi.

– Bugungi yosh avlod quvonchini hech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi, – deydi 90 yoshni qarshilagan keksa

avlod vakillari ham 1954-yilda shu maktabning 1-sinfiga o'qishga borganlar. Lekin o'sha davrda ularda na sumka, na kitob-daftar, na qalam bo'lgan.

– Mustaqillik yosh avlodga bitmas-tuganmas baxt, porloq kelajak hadya etdi. Prezidentimizning sovg'asini aytmaysizmi?! Bu yuksak e'tibor murg'ak qalblarda bitmas-tuganmas g'urur-iftixor va ona

Uchrashuvda maktabning sobiq o'quvchilari – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqov, maktab direktori Masharif Nurmetov, Yusuf Rahmonov, Ullijon Tillayeva, Durxonim Rahmatova va boshqalar o'quvchilarga o'z xotiralarini so'zlab, Istiqlol sharofati ila mamlakatimizda, xususan, uzluksiz ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, tinch-oso'yishta turmushimizning barqaror bo'lishi uchun amalga oshirilayotgan izchil siyosat va g'amxo'rliklar haqida batafsil to'xtaldilar.

Yangi o'quv yilining ilk kunida yoshlar bilan bo'lgan ikki avlod uchrashuvi o'quvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Xudoybergan JABBOROV, Feruza RAZZOQOVA, Xorazm viloyati



N. SULTONOV olgan suratlilar

o'qituvchi Yo'ldosh Nurmetov. – Bu keksa Vataniga cheksiz muhabbat tuyg'usini uyg'otmoqda.

## TUPROG'IMGA QIYOS TOPMADIM

Ustozlarimning «Vatan nima?» degan savollariga javob berishga qiynalardim.

Shu yil o'qishlarni yakunlab, tug'ilib o'sgan ona yurtim Buxoroga yo'l oldim. Qishlog'imga kirib borar ekanman, yuragimda qandaydir tug'yon jo'sh ura boshlaganini his etdim. Bu holatni so'z bilan ifodalash qiyin. Qishloqqa yetib borganimda, ariqlarda oqayotgan suv, gurkirab turgan daraxtlar, hatto osmonda uchayotgan qushlar ham menga Vatan neligini so'zlayotganday edi.

Ha, Buxoro shunday qutlug' maskanki, u yerda qanchadan-qancha ulug' avliyolarning xoki poyi bor. Men shu zaminning tuprog'ini bosar ekanman, ichimdagi tug'yon shu yurt haqida ijod qilishga undaydi. Qancha yozsam ham so'z topolmayman. Yurt tuprog'ida kezib, Vatanning neligini anglagandek bo'laman...

Maftuna RAHMATULLAYEVA, O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi



## GAZETADA HIKOYAM CHIQQI

Kechagina gazetada hikoyam bosilib chiqdi. Ukam uni ko'targanicha oyijonimning oldilariga chopib ketdi.

– Oyi, qarang, opamning yozganlari gazetada chiqibdi!

Mehribonim qaviyotgan ko'rphasini nari surdi. Qo'liga gazetani olib, uzoq tikilganicha ukamdan so'radi:

– Qani, qaysinisi?

– Voy, oyijonim-ey, mana, yozib qo'yibdi-ku, – dedi ukam kulib.

Oyim lotin alifbosida o'qigan bo'lsa-da, baribir ismimni topa olmadi. Shuning uchun ukam hikoyani do'mboq barmoqchalari bilan topib ko'rsatdi. Uning ko'zlarida uchqun porladi.

– Men bo'lsam, opangning suratini qidirib yuribman-a, – dedi.

Oyim gazetaga chiqqan hikoyamdan negadir suratimni qidirardi. Ehtimol, bu uning yuragida farzand chehrasi doimo gavdalanib turganidir. Shunday kezlarda onalarning qalb ko'zlari borligiga ishinging keladi.




Shohsanam SAYDULLAYEVA, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

# Lesson 1

My clever friends, we have been learning English with you for few years. We learnt a lot of new words and let's remember them.

Zukko va bilimdon do'stlarim, biz sizlar bilan ingliz tili darsida yangi so'zlarni o'rganib kelmoqdamiz. Keling, endi ularni eslab olamiz.

## FIND RIGHT EXPRESSIONS TO THESE PICTURES.



1. Go to the board.



2. ....



3. ....



4. ....



5. ....



6. ....




7. ....



8. ....

Go to the board, Answer the questions, Hand in your homework, Work in groups, Study page eight, Raise your hand, Correct your mistakes, Take out a piece of paper.

## CROSSWORD



1. Person who teaches us.
2. It rubs off when we do mistake.
3. It helps us draw the line straight.
4. It is a small round map.
5. It is a black big wood for writing.
6. We can write exercises, homework to it, it is a ...

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

## COMPARISONS OF ADJECTIVE (Sifat darajalari)

Sifatning 3 ta darajasi bo'lib, ular:

- |  |                          |
|--|--------------------------|
| 1) Oddiy – Absolute degree -               | - long – uzun            |
| 2) Qiyosiy – Comparative degree- er        | - longer – uzunroq       |
| 3) Ortirma – Superlative degree -the...est | - the longest – eng uzun |

Sifat darajalari 3 guruhga bo'linadi. Short syllable adjectives (qisqa bo'g'inli sifatlari), many syllable adjectives (ko'p bo'g'inli sifatlari), irregular adjectives (noto'g'ri sifatlari).

Absolute degree - Big Easy	1) Short syllable Comparative degree -er Bigger Easier	Superlative degree The...est The biggest The easiest
Absolute degree - Beautiful	2) Many syllable Comparative degree More... More beautiful	Superlative degree The most... The most beautiful
Absolute degree Good Well	3) Irregular Comparative degree  Better	Superlative degree  The best

### TEST YOURSELF! SEPARATE THESE WORDS INTO 3 ADJECTIVE GROUPS

Short syllable    Many syllable    Irregular  
carefully

Late, much, many, bad, fluently, guy, interesting, little, carefully

Nozima YO'LDOSHEVA

## PHRASAL VERBS

(Iboralar)

Dear pupils we began to learn phrasal verbs in English from last time, let's continue to learn by heart them.

(Qadrli o'quvchilar, o'tgan sonlarda sizlar bilan ingliz tilidagi iboralarni o'rganishni boshlagan edik. Keling, ularni yod olishda davom etamiz).

take after – o'xshash bo'lmoq

For example: Children often take after their parents.



grow up – voyaga yetmoq

Ex: Dildora wants to be a teacher when she grows up.



bring up – tarbiyalamoq

Ex: My aunt brought up four children.



do up – ta'mirlamoq

Ex: Let's do up the flat before mother comes from holiday.



look back – o'tmishni eslamok

Ex: I enjoy looking back on the old times.



Gulruh SOLIYEVA, O'zDJTU talabasi



**BAKTLIMAN**

Men baxtliman, yaqinlarim sog'-u omon,  
Do'stlar mehri e'tibordan boshim osmon.  
Qadrdonlar chehrasida quvonch ko'rsam,  
O'sha kunim boshdan oxir o'tar shodon.

Men baxtliman, osoyishta har bir kunim,  
Orzularga to'la kechar oydin tumim.  
Lahzalarim kamolimga kamol qo'shgay,  
Shijoat-u shiddatimda yo'qdir tinim!

Men baxtliman, ota-onam duosidan,  
Yog'dulandim Istiqlolning ziyosidan.  
Ildizlarim chinorlarga tutashgadir,  
Saboq oldim ulug'larning zakosidan.

Men baxtliman, yurtim go'zal bog'-u bo'ston,  
Ado bo'lmas chiroyiga aytсам doston.  
Shu chamanning eng erkato'y g'unchasiman,  
Men baxtliman, mening yurtim – O'zbekiston!

**CHARAQLAYDI  
QUYOSHIM**

Vatanim O'zbekiston,  
Mustahkamdir qo'rg'onim.  
Onam kabi mehribon,  
Suyukli qadrdonim.

Bu go'zal yer yuzida,  
Charaqlagan quyoshim.  
Vatanimning bag'rida,  
Mudom balanddir boshim.

*Islombek IBRAGIMOV,  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, Xo'jayli  
tumanidagi  
57-umumta'lim maktabining  
6-«V» sinf o'quvchisi*



**MUSHTARIYBEGIM,  
Namangan pedagogika  
kolleji o'quvchisi**



**USTOZ**

Qallda chirog'imiz, dilda ardog'im,  
Kelajak yo'limda suyangan tog'im.  
Siz-la yashnagaydirlar tafakkur bog'im,  
Siz qalbim quyoshi, oftobim ustoz.

Shunchalar fidoyi bo'lsa gar inson,  
Sizdek ustoz bo'lsin, sizdek mehribon.  
Sizdek bo'lajakman, aziz, jonajon,  
Siz hayot, siz umr kitobim ustoz.

Mendagi bilimlar, mendagi ta'lim,  
Barchasin avvali sizda muallim.  
Siz-la nurafshondirlar kelajak yo'lim,  
Siz cheksiz orzular ro'yobi, ustoz.

Mehri daryoimsiz ko'ngli chiroyim,  
Jonkuyarim sizdek ilmi ziyoyim.  
Men sizni ardoqlab o'taman doim,  
Siz dilim gavhari, mohtobim ustoz.

**Gullola RAHMONULLAYEVA,  
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi  
«Qaldirg'och» adabiy to'garagi a'zosi**



**SENING MEHRING YURAKDA HAR ON**

Ilm-u odobdan sochib ziyo,  
Yetaklaysan ezgulik sari.  
Sen tufayli go'zaldir dunyo,  
Sen bolalik, do'stlik minbari.

Mehr-u oqibat to'la maskan,  
Donishmandlar yetishgan makon.  
Sendan ko'ngil uzilmas ekan,  
Sening mehring yurakda har on.

Kunlar o'tar, oy, yillar o'tar,  
Dildan quvonch, shodlik arimas.  
Qalbimizda abadiy yashar,  
Do'stlar bilan qilamiz havas.

**Bezkod ORIPOV,  
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya  
fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim  
maktabining  
8-sinf o'quvchisi**

Kuzning dastlabki kunlari edi. Hali uyg'onib ulgurmagandim. Eshik qo'ng'irog'i jiringlab qoldi. Apil-tapil yuz-qo'limni yuvib, eshikni ochdim. Ostonada nuroniygina onaxon turardi. Shosha-pisha salom berdim. Chiroyli kulib alik oldi.

– Uzi, xolang o'rgilsin. Yangi sog'ilgan sut olib keluvdim. Yog'i olinmagan, olasizlarmi?

Ochig'i, bu gapdan biroz jahlim chiqdi. Kallai saharlab odamni bezovta qilish yaxshimas-da. Shunday bo'lsa-da, ayolimni chaqirdim. U ham «kutilmagan tashrif»dan xursand emasligi yuz-ko'zidan bilinib turardi.

– Xolajon, bizning o'z mijozimiz bor. Halizamon kelishadi. Sut-qatiqni o'shandan olamiz.

– Voy, xolang o'rgilsin, ular mening kelinlarim. Ishga chiqib ketishdi. Buyog'iga o'zim olib kelib turaman.

– Unda hozir, – deganicha ayolim uyga kirib, idish olib chiqdi.

Yangi mijozimiz ajoyib ekan. Sutni idishimizga quygancha meni qayerda ishlashim-u, bolalarimni nechanchi sinfda o'qishigacha bilib oldi.

– Uyda novvot bormi, kelin? – dedi sutni quyib bo'lgach.

– Ha.

– Bolalarga sutli novvotchoy qilib bergin, xo'pmi, xolang o'rgilsin... Iligi to'q bo'ladi.

Ayolim «xo'p-xo'p» deganicha endi uyga kirayotganida, xolaning gapi bilan to'xtab yana ortiga o'girildi.

– Voy, esim qursin, qarilik-da, xolang o'rgilsin, – deganicha xaltasidan uch-to'rtta qurut olib

uzatdi. – O'z qo'lim bilan qilganman, juda mazali, nevaralarimga bering.

Ayolim idishda sut, yana bir qo'lida qurut bilan kirib keldi. Chehrasi ochilib ketgan edi.

– Ajoyib kampir ekanmi? – dedim qo'lidan idishni olayotib.

– Nimasini aytasiz...

Ikki gapning birida «xolang o'rgilsin», deydi yangi mijozimiz qo'ni-qo'shnilar-u, hammamizni quyosh chiqar-chiqmas uyg'onadigan qilib qo'ydi. «Hay, xolang o'rgilsin, kelin, sahar turib eshikni ochib qo'ying, uyingizga baraka kiradi», «Hay-hay, yo'laginglar haliyam supurilmabdi-ku», degan ovoz goh bu qavatdan, goh unisidan eshitilib turadigan bo'ladi.

Avvaliga bundan biroz jahlim chiqqan bo'lsa-da, bora-bora ko'nikdim. Eng qizig'i, yettinchi sinfda o'qiydigan qizim Zumrad, qo'shni dugonalari ham «Xolang o'rgilsin»ga o'rganib qolishdi. Xoladan maqto'v eshitish uchun erta yotib, erta turadigan bo'lishdi. Yana bir tomoni, qizimning o'qishi ham yanada yaxshilandi.

Endilikda, u hamma ishga, dars tayyorlashga, onasiga yordam berish-u, dugonalari bilan aylanib kelishga ham vaqt topadigan bo'ladi.

Bugun tongda Quyoshni kutib oldik. Qizim Zumrad, o'g'lim Bahodir, onasi va men ayvonda turgancha tog'lar ortidan Quyoshning chiqishini poyladik. Avvaliga kichkina qizg'ish kulchadek bo'lib chiqqan Quyosh sekin-asta kattalashib ko'zni qamashtirdi.

Sizda-chi, sizda nima gaplar? Quyosh bilan birga uyg'onasizmi? Hovli, yo'laklarni tozalash, dars tayyorlash, vaqtda o'ynab kelishga ham imkon topayapsizmi? Yo'q bo'lsa, «Xolang o'rgilsin»ni kutib o'tirmang. Sahar turib, Quyoshni kutib olishga o'rganing.

**Yusuf ABDULLAYEV**

**O'RGILAY  
XOLLA**



## SULAYMONNI DUNYO TANIDI

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, mustaqillik yillarida Buxoro boks maktabidan bir qancha mahoratli sportchilar yetishib chiqdi. London Olimpiadasi sovrindori Abbas Atoyev, bir necha xalqaro musobaqalar g'olib Fazliddin G'oyibnazarov shular jumlasidandir.

– Yurtimizda biz yoshlarning ta'lim olishimiz, sport bilan shug'ullanishimiz, bir so'z bilan aytganda, o'z iqtidorimizni to'la namoyon etishimiz uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Nankinda erishgan muvaffaqiyatim ana shu yuksak e'tibor samarasidir. Nasib bo'lsa, kelajakda kattalar o'rtasidagi Olimpiada o'yinlarida g'olib bo'lib, yurtim bayrog'ini baland ko'tarmoqchiman, – deydi Sulaymon Latipov.

Tadbir so'ngida yosh sportchining yutuqlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan murabbiylar rag'batlantirildi.



Gazetamizning o'tgan sonida Xitoyning Nankin shahrida bo'lib o'tgan II o'smirlar yozgi Olimpiadasida yosh sportchilarimizning qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari haqida hikoya qilgan edik. Kuni kecha Buxoroda mazkur Olimpiadaning boks bo'yicha bellashuvlarida kumush medalga sazovor bo'lgan Sulaymon Latipovni taqdirlashga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

### TA'TIL TAASSUROTLARI

Mazkur sport bayrami barcha joylarda bo'lgani kabi, bu yil Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yuqori saviyada tashkil etildi. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi doirasida o'tkazilgan musobaqaning quyi bosqichida 36 ming 600 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar sportning 13 turi bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Aytish mumkinki, final bellashuvlari keskin va murosasiz tarzda o'tdi. Jumladan, futbol bahslarida Nukus shahri, voleybol bellashuvlarida Beruniy tumani hamda shaxmat bo'yicha Xo'jayli tumani yoshlari barcha raqiblaridan ustun kelib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

S. TURSINOV

O'quvchilarning yozgi ta'tilda maroqli dam olishini ta'minlash maqsadida har yili tegishli tashkilotlar hamkorligida turli sport musobaqalari, san'at bayramlari tashkil etib kelinmoqda. Umumta'lim maktablari, kasb-hunar ta'limi o'quvchilari ishtirokida o'tkazib kelinayotgan «Yoz – 2014» sport musobaqalari ana shular jumlasidandir.



## GIMNASTIKACHILAR BAHSI

Poytaxtimizda sport gimnastikasi bo'yicha Toshkent shahar kubogi uchun musobaqa o'tkazildi.

Kubok bahslari sportchilarimiz uchun joriy yilning 19-sentabr – 4-oktabr kunlari Janubiy Koreyaning Incheon shahrida bo'lib o'tadigan XVII Osiyo o'yinlariga muhim tayyorgarlik vazifasini o'tadi.

Musobaqada Eduard Shaulov, Rasul Abdurahimov, Otabel Masharipov, Salohiddin Mirzayev, Abdulla Azimov, Oston Malinov g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi. Xotin-qizlar o'rtasida esa Oksana Chusovitina, Dilnoza Abdurasulova, Sabina O'rinboyeva, Alina Andaboyeva, Alina Kulyarova, Naima Nig'matova, Arofat Iskandarova kabi mahoratli sportchilar shohsupaga ko'tarildi.

Shoh MUHAMMAD



## OTAM, ONAM VA MEN – SPORTCHI OILA

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi Jurjoniy mahallasi hududida joylashgan 26-bolalar va o'smirlar sport maktabida Mustaqilligimizning 23 yilligiga bag'ishlab, «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida «Otam, onam va men – sportchi oila» deb nomlangan sport o'yinlari musobaqasi o'tkazildi.

Mazkur tadbirda poytaxt tumanlaridan kelgan sportchi oilalar o'zaro bellashishdi.

– Ota-onam bilan birga Mirzo Ulug'bek tumanidan sportchi oila sifatida musobaqada ishtirok etdik, – deydi 142-umumta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi Nurmuhammad ABDURAHMONOV. –

Yugurish, to'siqlardan o'tish, balandlikdan sakrash, keglilar orasidan

koptokni yerga urib olib o'tish, ko'zimizni bog'lab turib, darvozaga to'p kiritish kabi mashqlarni bajardik. Musobaqa bahonasida yangi do'stlar orttirdim.

Qizg'in kechgan bellashuvda 1-o'ringa Yakkasaroy tumani vakillari sazovor bo'lishdi.

Tadbirda ishtirok etgan barcha sportchi oilalar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.



BONU

# IBRAT

(Voqeyi hikoya)

Ko'chadan yugurib kelgan Azamatjon, onasi Dilyora opaga ma'yus qiyofada qaradi. Bolasining turishidan ko'ngli xira tortgan Dilyora opa o'g'liga:

– Ha bolam, nima bo'ldi, tinchlikmi? Nega yig'lagudek bo'lib turibsan? – dedi.

– Oyi, dunyoda eng yomon narsa kitobni yirtishmi?

– Ha, bolajonim, shunday. Nega so'rayapsan?

– Ko'chada kimdir kitobni yirtib tashlabdi. Bolalar ham undan kemachalar yasab, suvga oqizayotgan ekan. Yirtilgan bo'lsa ham uyga olib keldim. Axir siz shunday o'rgatgansiz-ku!

– Yaxshi qilibsan, bolajonim. Kel, biz uning yirtilgan sahifalarini yelimlab, jild tayyorlaymiz, sarlavha qo'yamiz, – dedi ona o'g'lini yupatib.

Azamatjon oyisi bilan kitobni ta'mirlab bo'lgach, uni qo'liga oldi-yu, ko'chaga yugurdi.

Kitobni butlangan holda ko'rgan bolalar qilgan ishlaridan pushaymon bo'lishdi.



Ma'sumaxon SALOHIDDINOVA,  
Farg'ona viloyati, «Qaldirg'och»  
adabiy to'garagi a'zosi

KOINOTGA SAYR

## OY HAQIDA NIMA BILASIZ?



Oy – Yerning tabiiy yo'ldoshi bo'lib, u sayyoramiz atrofini to'liq aylanib chiqishi uchun 28 kecha-kunduz vaqt kerak bo'ladi. Taxminan shu vaqt mobaynida u o'z o'qi atrofida ham to'liq aylanadi. Oynning diametri Yernikidan to'rt barobar kichik, vazni esa sayyoramiz vaznidan 81 marta kam.

Oy bilan sayyoramiz o'rtasidagi masofa 384400 km. Bu ko'pmi yoki kam? Keling, turli transport vositalari yordamida Oyga qancha vaqtda borish mumkinligini taxminan aniqlaymiz.

Raketada borish uchun 2–3 kun, samolyotda 3 hafta, poyezd yoki avtomobilda borilsa, yarim yildan ortiq vaqt kerak bo'ladi.

Piyoda borish uchun esa 50 yil zarur.

1969-yilning 20-iyul kuni Amerika oy kabinasi Yerning tabiiy yo'ldoshiga qo'ndi. Astronavt Nil Armstrong Oyga qadam qo'ygan birinchi inson bo'ldi.

Nigora JO'RAYEVA tayyorladi

Ona zamin ne'matlari

## SHIFOBAXSH NOK

Nok tarkibida inson organizmini tetiklashtiruvchi bir qancha foydali vitaminlar bor. Bundan tashqari, uning tarkibida mikroblarga qarshi kurashishda noyob hisoblangan glyukoza va uglevodlar mavjud.



Yangi tayyorlangan nok sharbati organizmdan zaharli chiqindilarni haydash xususiyatiga ega. Shamollashda, yuqori harorat va yo'talda kuniga uch mahal bir piyoladan nok sharbati ichish tavsiya etiladi.

Kamqonlikda, qon aylanishining buzilishi, tomirlar torayishi, varikozning oldini olishda kuniga 2–3 dona nok yeyish maqsadga muvofiq. Kuz va qish oylarida undan tayyorlangan murabbo va sharbatlar juda foydali hisoblanadi.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Nok mevosi insonning kayfiyatini ko'taradi, chanqoqni bosishda benazir ne'mat sanaladi. Uning qishki, kuzgi, nashvati, yer nok, tosh nok, chillaki, yozgi kabi turlari mavjud.



## TOPISHMOQ

Yursang, u ham yuradi,  
Tursang, u ham turadi.  
Qani ayt-chi, jon o'rtoq,  
O'yla, izla, tezroq top!  
Bilmam, toshmi, yo qoya,  
Eh, bilmasvoy, bu ....


E'zoza MUHAMMEDOVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabining 7-«D» sinf o'quvchisi

Gazetamizning 35-sonida berilgan «O'ZBEKISTONIM» AYLANMA KROSSVORDIning javoblari:

1. Madhiya.
2. Tinchlik.
3. Kaptiva.
4. Ermatov.
5. Beruniy.
6. Zulfiya.
7. Sunbula.
8. «Kamalak».
9. Mahalla.
10. «Alpomish».

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Ona tili fani bo'yicha



1. So'z turkumlaridan biri.
2. «Zavqlanmoq», «quvonmoq» so'zlari qaysi nisbatda?
3. «O'qib qo'ydim»dagi «qo'ydim» qanday fe'l?
4. «Yig'in» so'zidagi -in qo'shimchasi fe'ldan qaysi so'z turkumini yasagan?
5. O't (ot), o't (fe'l) qanday so'zlar?
6. «Xonada o'tiribmiz». Ushbu gapda ot qanday sintaktik vazifada kelgan?
7. -ni, -ning, -ga, -da, -dan qo'shimchalarining umumiy nomi?  
Zahro O'LMASOVA,  
TIU qoshidagi akademik litseyning  
3-bosqich o'quvchisi

8

8-sentabr 2014

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSIYOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi  
muharrir  
Axtamqul  
KARIMOV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li

Manzilibiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 30068  
Buyurtma – S 831